SER ARTHUR CONAN DOYLNING "TO'RTLAR BELGISI" ASARIDA DETEKTIV METODOLOGIYASI VA KRIMINALISTIK ELEMENTLAR TAHLILI

Sobirova Nodirabegim Murodjon qizi
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
Qo‘qon universiteti Xorijiy tillarni o‘qitish metodikasi kafedrasi katta o‘qituvchisi

Burxonova Orzigul Barkamoljon qizi
Qo’qon universiteti Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) yo'nalishi
3-kurs talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.24337349

Annotatsiya

Maqolada Artur Konan Doylning "To'rtlar belgisi" (1890) romanidagi detektiv metodologiya va kriminalistik elementlar adabiy talqin nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Sherlok Holmsning "deduksiya fani", jismoniy dalillar va ma'lumotnomalardan foydalanish usullari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, asardagi imperiya, irqiy stereotiplar, giyohvandlik va tartibning qisman tiklanishi masalalari postkolonial tadqiqotlar asosida yoritiladi. Tahlil natijasida roman detektiv janr doirasidan chiqib, Viktoriya davrining ijtimoiy ziddiyatlarini aks ettirgan asar ekani asoslanadi. Tezisning maqsadi - "To'rtlar belgisi"dagi detektiv metodologiya ("deduksiya fani") va kriminalistik elementlarning badiiy vazifasini aniqlash, ularning imperiya, irq va erkaklik haqidagi davr qarashlari bilan bog'liqligini ochib berishdir. Ishda tarixiy-madaniy va postkolonial tahlil usullaridan hamda boshqa tadqiqotchilar fikrlarining qiyosiy tahlilidan foydalanildi.

Kalit so'zlar: Artur Konan Doyl, To'rtlar belgisi, Sherlok Holms, detektiv metodologiya, deduksiya, kriminalistika, imperiya, mustamlakachilik, Viktoriya adabiyoti.

Kirish

XIX asr oxiri Viktoriya davri Britaniya adabiyoti ijtimoiy va siyosiy hayotini o'rganishda "The Sign of Four" romani muhim manba hisoblanadi. Ser Artur Konan Doylning 1890-yilda nashr etilgan "To'rtlar belgisi" (The Sign of the Four) romani jahon detektiv adabiyotining eng yorqin namunalaridan biri bo'lishi bilan birga, davrning global muammolarini o'zida aks ettirgan ijtimoiy-falsafiy asardir. Patrik Brantlinger (1988) XIX asr oxiri ingliz adabiyotida mustamlakadan kelgan xavf imperiya markazining o'ziga qaytib keladi, degan qo'rquv ("imperial gotika") yetakchi mavzulardan biri bo'lganini ta'kidlaydi. Bu mantiq "To'rtlar belgisi"da ham yaqqol ko'rinadi: Agra xazinasi o'z yurtidan o'g'irlanib Londonga keltirilgach, imperiya poytaxtiga tartibsizlik va o'lim olib keladi (Kidambi, 2022). Bugungi zamonaviy adabiyotshunoslikda ushbu asarni shunchaki jinoyat va jazo mezonlari sifatida emas, balki boylikka bo'lgan intilish va ochko'zlik inson hayotiga qay darajada ta'sir o'tkazishi Jonatan Small obrazi orqali yaqqol yoritib berilgan asar sifatida ham o'qish mumkin.

Odatda detektiv janri jamiyatdagi muammolarni hal qiluvchi janr deb hisoblanadi. Uning asosiy vazifasi - asar davomida paydo bo'lgan qoidabuzarlik va tartibsizliklarni oxirida bartaraf etib, eski tartib hamda jamiyat qoidalarini qayta tiklashdir. Detektiv adabiyoti tarixidagi eng taniqli uchrashuv - ilmiy qidiruv ustasi Sherlok Holms va uning sadoqatli hamrohi hamda solnomachisi Jon Uotsonning tanishuvi Ser Artur Konan Doylning "To'q qizil rangli etyud" (A Study in Scarlet) romanida yuz beradi. Holms

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

haqidagi ikkinchi roman - "To'rtlar belgisi" esa detektivga eng murakkab sinovlardan birini taqdim etadi. Unda Hindistondagi Agra xazinasining o'g'irlanishi xiyonat, aldov va qotilliklar zanjiriga sabab bo'ladi. Sherlok Holms birinchi marta "To'q qizil rangli etyud" (1887) asarida paydo bo'lgan va keyinchalik "The Strand Magazine" jurnalidagi hikoyalar orqali mashhurlikka erishgan bo'lsa-da, uning xarakteri allaqachon ikkinchi romani - "To'rtlar belgisi"danoq to'liq shakllanib bo'lingan edi. Ilmiy izlanishlarning aksariyatida Doyl va uning qahramoni Holms har bir jinoyatni ochish orqali jamiyatdagi eski (konservativ) tartibni tiklaydi. Biroq Doyl 1889-yilda "Lippincott's Monthly Magazine" tahririyati uyushtirgan kechki ovqatda yozuvchi Oskar Uayld bilan uchrashganidan so'ng yozilgan "To'rtlar belgisi" asarida Holms batamom boshqacha xarakter namoyon etadi (Reitz, 2023). Holmsning kokain iste'mol qilishi, jinoyatga bir san'at asari kabi qarashi, musiqa va san'atga qattiq berilgani o'sha davrdagi "haqiqiy erkak" haqidagi konservativ qarashlarga mutlaqo zid keladi. Holms ko'pincha rasmiy mezonlar bilan kelisha olmaydi va jamiyatdan ajralib turadigan "o'zgacha" (boshqa) shaxs hisoblanadi. Shu sababli, u jamiyatdagi eski tartib-qoidalarni himoya qiluvchi oddiy timsol bo'la olmaydi.

Asosiy qism

Holms obrazining ilk namunasi sifatida odatda Ser Artur Konan Doylning ustozi, jarroh Jozef Bell ko'rsatiladi. Muallifning tabiiy fanlar bilan tanishligi romanning birinchi bobi - "Deduksiya fani"dayoq seziladi. Bu yerda Holms Uotsonning soatiga qarab, uning ichkilikka berilgan birodari haqida bir qator xulosalar chiqaradi va Uotsonni lol qoldiradi. Muhimi, Holms o'z uslubini sehr emas, balki kuzatuv va mantiqiy zanjir deb tushuntiradi. Holms usuli mayda, e'tibordan chetda qolgan izlarga qarab yaxlit voqeani tiklashga asoslanadi. Ronald Thomas (1999) detektiv janrining Viktoriya davridagi sud-ekspertiza fanlari bilan birga shakllanganini, bunday adabiyot esa ilmiy bilimga bo'lgan ishonchni jamiyatga singdirganini ko'rsatadi. Romanda Holms ilm va hissiyotni qarama-qarshi qo'yadi: u sevgini sof mantiq uchun xavfli, "buzuvchi" omil sifatida ko'radi. Biroq roman davomida bu "sof ratsionalizm" bir necha bor sinovdan o'tadi, bu esa Holms obrazining ikki qirrali ekanini bildiradi.

Romanning hikoya tuzilishi ham metodologiyaning bir qismidir. Voqealar Uotson tilidan, ya'ni Holmsning yaqin do'sti va o'quvchi nomidan savol beruvchi "oddiy" kuzatuvchi nuqtayi nazaridan bayon qilinadi. Holms xulosalarini tushuntirganda, Uotson va o'quvchi bir vaqtda hayratga tushadi va mantiqiy zanjirni ketma-ket tushuna boshlaydi. Shu tariqa Doyl detektiv janrning asosiy qoidasini shakllantiradi: o'quvchi dalillarni ko'radi, ammo ularni to'g'ri bog'lash qobiliyati faqat Holmsga xos bo'ladi. Bu uslub keyingi detektiv adabiyotda keng qo'llanilgan sxema sifatida ham diqqatga sazovor.

Romanda kriminalistik elementlar bir necha qatlamda namoyon bo'ladi. Birinchidan, jinoyat joyidagi moddiy dalillar: Bartolomiy Sholto xonasidagi qiyshiq oyoq izlari, zaharli tikan va xatdagi "To'rtlar belgisi" imzosi. Holms bu izlardan jinoyatchi bo'yi pastligini va u bilan birga yog'och oyoqli odam bo'lganini aniqlaydi. Ikkinchidan, kuzatuv texnikasi: Holms Toby ismli itni kreozot hididan iz olish uchun ishlatadi, Beyker-strit ko'cha bolalari ("Baker Street Irregulars") esa norasmiy razvedka tarmog'i vazifasini bajaradi. Uchinchidan, ma'lumot manbalari: Holms Andaman orollari aholisi haqidagi ma'lumotni gazetteer (ma'lumotnoma)dan o'qib topadi. John McBratney (2005) shu epizodga e'tibor qaratib, Hindiston aholisini ro'yxatga olish, "Imperial Gazetteer" va "Jinoyatchi qabilalar to'g'risidagi qonun" kabi mustamlaka bilimlari Doyl matnining tuzilishiga singib ketganini ko'rsatadi. Demak, detektiv bilim va imperiya bilimi bir-birini to'ldirib turadi.

To’rtinchidan, Holms usuli rasmiy politsiya bilan qiyoslanadi. Inspektor Athelney Jones faqat yuzaki dalillarga tayanib, Thaddeus Sholtoni noto'g'ri hibsga oladi; Holms esa mantiqiy chiqarish orqali haqiqatga yaqinlashadi. Shu tariqa Doyl shaxsiy ilmiy kuzatuvchanlikni institutsional politsiyadan ustun qo'yadi. Ayni paytda jinoyatchini ta'qib qilish - Temza daryosida "Aurora" kateri ortidan quvish - zamonaviy texnologiya, ya'ni imperiya texnika qudrati ham tartibni tiklashda ishtirok etishini ko'rsatadi.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Roman voqealari 1857-yilgi Hindistondagi katta qo'zg'olon ("Sipoylar qo'zg'oloni") ortida yotadi. Asarning mustamlaka syujeti detektiv syujetdan ajralmas (Kidambi, 2022). Jonatan Small - Agra qal'asida xizmat qilgan va xazina uchun uch hindistonlik bilan "To'rtlar ittifoqi"ni tuzgan sobiq askar. Uning oxirgi bobdagi iqrorligi o'quvchida unga nisbatan hamdardlik uyg'otadi, ammo xazinani Temzaga tashlashi ochko'zlikning befoyda ekanini ko'rsatadi.

Ayni paytda roman irqiy stereotiplardan xoli emas. Andaman orolidan kelgan Tonga ham hayvonsifat "jahannam iti" shaklida beriladi. Arup Chatterjee (2020) Tonga obrazining manbalarini XIX asr Andaman haqidagi etnografik ma'lumotlari va 1886-yilgi Mustamlaka ko'rgazmasiga bog'laydi va bu obraz imperiya ilmi "yovvoyi" shaxsni o'z irqiy tasnifiga to'liq sig'dira olmasligini ko'rsatadi, deb hisoblaydi. McBratney (2005) esa Doyl romani "irqiy va jinoiy tip" tushunchalarini oqlaydi va hindlarning siyosiy sub'ektligini inkor etadi, degan xulosaga keladi. Kidambi (2022)ga ko'ra, Tonga va xazinaning Londonga kelishi imperiya xavotirini keltirib chiqaradi, ularning taqdiri (Tonganing o'limi va xazinaning yo'qolishi) esa mustamlakachilik izini imperiya markazidan butunlay "tozalash" imkonsizligining allegoriyasidir.

Roman boshida Holms kokain in'ektsiyasini zerikishdan qutulish usuli deb himoya qiladi. Keep va Randall (1999) Holmsning giyohvandligini Britaniya imperiyasining mustamlaka boyliklariga "qaramligi" bilan bog'laydi. Shu bilan Holmsning "o'zgacha" shaxsi ham imperiya va zamonaviy madaniyatdagi qaramlik tuyg'usi bilan bog'lanadi. Roman yakuni ham ikkiyoqlama: jinoyat ochilgan, Small qo'lga olingan, Uotson Meri Morstanga uylanadi, ya'ni tartib tiklangandek ko'rinadi. Ammo xazina yo'qolgan, Holms esa o'zining kokain shishasiga qaytadi. Demak, detektiv janrning "tartibni tiklash" vazifasi bu asarda faqat qisman bajariladi.

Xulosa

"To'rtlar belgisi" Holmsning ilmiy metodini ko'rsatish bilan cheklanmay, uni davrning ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlari bilan bog'laydi. Deduksiya, jismoniy dalillar va ma'lumotnomalar jinoyatni ochish vositasi bo'lsa, shu bilan bir qatorda imperiya bilimi va irqiy stereotiplarni ham ifodalaydi. Holms, Small va Tonga obrazlari o'rtasidagi munosabat esa detektiv janrning tartibni tiklash vazifasi bu romanda to'liq bajarilmasligini ko'rsatadi. Shuning uchun asarni bir vaqtning o'zida detektiv roman, imperiya haqidagi matn va Viktoriya davri erkaklik qarashlarining aksi sifatida o'qish mumkin. Shu bois "To'rtlar belgisi" bugungi o'quvchi uchun nafaqat qiziqarli detektiv hikoya, balki Viktoriya davri imperiyasining o'z oldidagi qo'rquvlari va ziddiyatlarini o'rganish uchun boy matn hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Brantlinger, P. (1988). Rule of Darkness: British Literature and Imperialism, 1830-1914. Ithaca: Cornell University Press.
2. https://cornellpress.cornell.edu/book/9780801420900/rule-of-darkness/#bookTabs=1
3. Chatterjee, A. K. (2020). The Science of the Andamans and The Sign of the Four: The Distorted Racial Hierarchy of British Imperial Anthropology. Shima, 14(2), 214-234. https://doi.org/10.21463/shima.14.2.14
4. 3. Doyle, A. C. (2023). The Sign of the Four (C. Reitz, Ed.). Oxford: Oxford University Press (Oxford World's Classics). [1-nashr: Lippincott's Monthly Magazine, 1890].
5. https://global.oup.com/academic/product/the-sign-of-the-four-9780198862123?cc=uz&lang=en&
6. C., & Randall, D. (1999). Addiction, Empire, and Narrative in Arthur Conan Doyle's The Sign of the Four. NOVEL: A Forum on Fiction, 32(2), 207-221.
7. https://research.amanote.com/publication/x4wv03MBKQvf0BhiduMq/addiction-empire-and-narrative-in-arthur-conan-doyles-the-sign-of-the-four

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

8. Kidambi, R. (2022). The Colonial Project and The Sign of the Four: A Narrative Purging of the 'Other'. Neith Law and Humanities Journal, 1(1), 38-43. https://doi.org/10.55012/acadsa.2022.1.1.1
9. McBratney, J. (2005). Racial and Criminal Types: Indian Ethnography and Sir Arthur Conan Doyle's The Sign of Four. Victorian Literature and Culture, 33(1), 149-167. https://doi.org/10.1017/S106015030500077X
10. Thomas, R. R. (1999). Detective Fiction and the Rise of Forensic Science. Cambridge: Cambridge University Press.
11. https://books.google.co.uz/books/about/Detective_Fiction_and_the_Rise_of_Forens.html?id=s6y9uaTPiBoC&redir_esc=y

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.